# JTIMOIY HIMOYA TIZIMINI INSTITUTSIONAL YANGILASH: MILLIY AGENTLIK VA “IJTIMOIY KARTA”

**UDK:**

**Xoliqov Arslonbek Xoliq o‘g‘li**

***Annotatsiya.*** *Tezisda ijtimoiy himoya tizimini eski modeldan manzilli va raqamlashtirilgan modelga o‘tkazish jarayoni tahlil qilinadi. Ijtimoiy himoya milliy agentligi, “Inson” markazlari va yagona “ijtimoiy karta”ning joriy etilishi ijtimoiy davlat tamoyilini amalda mustahkamlovchi omillar sifatida asoslanadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *ijtimoiy himoya, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, “Inson” markazlari, “ijtimoiy karta”, ijtimoiy davlat, hududiy yondashuv.*

***Аннотация.*** *В тезисе анализируется процесс перехода системы социальной защиты от прежней модели к адресной и цифровизированной модели. Создание Национального агентства социальной защиты, центров «Inson» и внедрение единой «социальной карты» обосновываются как факторы, укрепляющие принцип социального государства.*

***Ключевые слова:*** *социальная защита, Национальное агентство социальной защиты, центры «Inson», «социальная карта», социальное государство, региональный подход.*

***Abstract.*** *The thesis analyses the transition of the social protection system from the former model to a targeted and digitalised one. The establishment of the National Social Protection Agency, the “Inson” centres and the introduction of a unified “social card” are substantiated as factors strengthening the principle of a social state.*

***Key words:*** *social protection, National Social Protection Agency, “Inson” centres, social card, social state, regional approach.*

O‘tkazilgan tahlillarga ko‘ra, ijtimoiy himoya sohasi uzoq vaqt 30 yil oldingi tizimda qolib, asosan davlat ajratgan mablag‘ni tarqatish bilan cheklanib kelgan. Bu

yondashuv ayrim fuqarolarni mustaqil daromad topishga emas, yordam kutib yashashga o‘rgatgan. Bundan tashqari, nafaqa tayinlashda o‘zboshimchaliklar va imkoniyati cheklangan shaxslarga nisbatan e’tiborsizlik holatlari ham sohani tubdan isloh qilishni taqozo etgan.

Konstitutsiyamizning 1-moddasida O‘zbekiston ijtimoiy davlat ekani belgilangan. Shunga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Barcha hududlarda “Inson” ijtimoiy xizmat markazlari ochilib, ijtimoiy xodimlar uyma-uy yurib, reyestrda bo‘lmagan 95 ming muhtoj odamni aniqlab, ularga yordam ko‘rsatdi. Dasturlarni ishlab chiqishda hududlarning demografik, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlari — aholi soni, bandlik va turmush darajasidagi tafovutlar hisobga olinmoqda.

Fuqarolar ilgari ijtimoiy xizmat olish uchun 10 dan ortiq hujjatni olib yurishga majbur edi; endilikda ularning o‘rnini yagona “ijtimoiy karta” bosadi. U orqali jamoat transportida bepul yurish, kommunal va o‘qish xarajatlariga kompensatsiya olish, nafaqa va yordam pullarini qabul qilish mumkin. Manzilli ishlar natijasida kambag‘al oilalardagi minglab fuqarolar doimiy ishga joylashtirildi, xalq qabulxonalari va hokimliklarga murojaatlar 35 foizga kamaydi. Shu tariqa tizim institutsional jihatdan yangilanib, ijtimoiy davlat tamoyili amalda mustahkamlanmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 1-modda.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligini tashkil etish to‘g‘risidagi 01.06.2023-yildagi farmon.
3. Prezident Sh.M.Mirziyoyev raisligidagi “Ijtimoiy himoya sohasidagi ishlar natijadorligi va 2025-yil uchun ustuvor vazifalar” muhokamasi, videoselektor, 13.12.2024-yil. https://president.uz
4. https://parliament.gov.uz/articles/638